

**TARKIBIY O'ZGARISHLAR SHAROITIDA ISHSIZLIKNING
IQTISODIYOTGA TA'SIRI**

Qodirov Asliddinxo 'ja Mahammadjon o'g'li

Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti

Iqtisodiyot fakulteti

Iqtisodiyot nazariyasi kafedrası

1-kurs Tayanch doktoranti.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tarkibiy o'zgarishlar jarayonida yuzaga keladigan ishsizlik holati va uning iqtisodiy o'sish, ijtimoiy barqarorlik hamda mehnat bozori ko'rsatkichlariga ta'siri tahlil qilinadi. Ishsizlikning turlari, sabablari va tarkibiy o'zgarishlar davrida ularni yumshatish mexanizmlari keng yoritilgan. Shuningdek, maqolada O'zbekiston iqtisodiyoti misolida so'nggi yillardagi ishsizlik darajasi va davlat tomonidan olib borilayotgan bandlik siyosatining natijalari tahlil qilinadi. Ilmiy maqolada strukturaviy ishsizlikni kamaytirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ham ishlab chiqilgan bo'lib, u iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *ishsizlik, tarkibiy o'zgarish, iqtisodiy o'sish, mehnat bozori, bandlik siyosati, strukturaviy ishsizlik, iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy ta'sir.*

Bozor iqtisodiyotining rivojlanishi bilan birga, ishsizlik darajasi va uning tuzilmasi sezilarli darajada o'zgarib bormoqda. Ayniqsa, tarkibiy o'zgarishlar — ya'ni iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarining qisqarishi yoki yangilarining paydo bo'lishi mehnat bozorida muvozanatsizliklarga olib keladi. Bu holatda ishsizlik nafaqat ijtimoiy muammo sifatida, balki iqtisodiy rivojlanishga to'sqinlik qiluvchi omil sifatida ham maydonga chiqadi.

Tarkibiy o'zgarish deganda, mamlakat, sanoat yoki bozor faoliyatidagi, odatda, yirik iqtisodiy rivojlanishga olib keladigan keskin o'zgarishlarga aytiladi. — Strukturaviy o'zgarishlarni amalga oshirishning kaliti ushbu tizimga xos bo'lgan

dinamizmdir. Tarkibiy o'zgarishlarni ko'pincha texnologik innovatsiyalar, yangi iqtisodiy rivojlanishlar, kapital va ishchi kuchidagi global o'zgarishlar, resurslar mavjudligining o'zgarishi, resurslarga talab va taklifning o'zgarishi hamda siyosiy landshaft o'zgarishi keltirib chiqaradi.

Ishsizlik – iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan muhim hodisa bo'lib, mehnatga layoqatli bo'lgan, ishlash istagidagi fuqarolarning ish bilan ta'minlanmagan qismini anglatadi.

Ushbu hodisa mehnat bozorida mavjud ishchi kuchining to'liq foydalanilmasligi natijasida yuzaga keladi. Ishsizlik turli shakllarda bo'lishi mumkin: friksion, tarkibiy, siklik, institutsional, texnologik, hududiy (regional), yashirin va turg'un ishsizlik kabi turlari mavjud. Odamlar ba'zida yashash joyini o'zgartirish, yaxshi ish haqi izlash yoki ish mazmunidan qoniqmaslik kabi sabablarga ko'ra ish joyini o'zgartiradilar. Bunday o'zgarishlar vaqtida, ya'ni bir ishni tark etib, boshqasini topish oralig'ida yuzaga keladigan ishsizlik “friksion ishsizlik” deb ataladi. Bu davr odatda 1 oydan 3 oygacha davom etadi.

Zamonaviy dunyoda ishsizlik eng dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan biri sanaladi. Bu muammo nafaqat rivojlanayotgan davlatlarda, balki iqtisodiyoti ilg'or mamlakatlarda ham kuzatiladi. Global iqtisodiy o'zgarishlar, texnologik taraqqiyot, davlat siyosati hamda demografik omillar jahon mehnat bozoriga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbekiston ham ushbu muammoga befarq emas: mamlakatda ishsizlik darajasini pasaytirish va uni oldini olish bo'yicha ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ishsizlik ortishi ijtimoiy beqarorlik, qashshoqlik va jinoyatchilik darajasining ko'tarilishiga olib keladi, bu esa iqtisodiy taraqqiyotga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ishsizlikning asosiy sabablari orasida iqtisodiy inqirozlar va tarkibiy o'zgarishlar alohida o'rin tutadi. Iqtisodiy sikllarning ko'tarilish va pasayish bosqichlari ham ishsizlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi. Bunday holatlar “siklik ishsizlik” deb nomlanadi.

Bundan tashqari, texnologik rivojlanish ham ishsizlik darajasiga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish jarayonlari sababli ko'plab

ishchilar ish o'rinlaridan ayrilmoqda. Ishchi kuchining texnologik yangiliklarga moslasha olmasligi "strukturaviy ishsizlik"ni yuzaga keltiradi. Shuningdek, demografik holatlar, ayniqsa aholi tarkibidagi yoshlarning salmog'i va ularning ta'limi mehnat bozoriga mos kelmasligi, yoshlarda ishsizlik darajasining ortishiga olib keladi. Yoshlarga mos kasb va malaka berilmasa, ular mehnat bozoriga kirishda katta qiyinchiliklarga duch keladilar.

Ishsizlik faqat iqtisodiy emas, balki psixologik va ijtimoiy oqibatlariga ham ega. Ish topa olmagan shaxslar o'zlarini jamiyatda ortiqcha deb his qilishlari, tushkunlikka tushishlari mumkin. Bu holat ularning ruhiy holatiga, ijtimoiy munosabatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri mehnat bozorida barqarorlikni ta'minlash va ishsizlikka qarshi kurashishdir.

Davlat tomonidan bu borada olib borilayotgan chora-tadbirlar quyidagilardan iborat: ijtimoiy qo'llab-quvvatlash dasturlari, kasbga qayta tayyorlash va malaka oshirish imkoniyatlarini yaratish, tadbirkorlikni rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish. Bu strategiyalar ishsizlik darajasini pasaytirishda muhim ro'l o'ynaydi.

Ishsizlik namoyon bo'lish usuli va kelib chiqish sabablari bo'yicha friksion, tarkibiy va davriy turlarga bo'linadi. Friksion ishsizlik — bu insonning o'z xohishi bilan ishsiz bo'lishi bo'lib, bir ish joyidan boshqasiga o'tish, yashash manzilini o'zgartirish kabi holatlar bilan bog'liq. Ushbu turdagi ishsizlik doimiy xarakterga ega.

Tarkibiy ishsizlik esa majburiy ishsizlik hisoblanib, mehnat bozorida kasbiy malaka mos kelmasligi yoki boshqa shunga o'xshash omillar tufayli yuzaga keladi. Bu turdagi ishsizlik ham doimiy sanaladi. Friksion va tarkibiy ishsizlik birgalikda ishsizlikning tabiiy darajasini tashkil etadi. Tabiiy darajadagi ishsizlik deganda ish izlayotganlar soni bo'sh ish o'rinlari soniga mos keladigan holat tushuniladi. Bu holatda ishchi kuchi bozori muvozanatga keladi.

Ushbu tabiiy daraja iqtisodiy nuqtai nazardan maqbul holat hisoblanadi, chunki friksion ishsizlar uchun mos ish topish, tarkibiy ishsizlar uchun esa yangi kasb egallash yoki yangi hududda ish izlash muayyan vaqt talab etadi.

Ishsizlikning barcha shakllari birgalikda uning real (haqiqiy) darajasini aks

ettiradi. Ishsizlik darajasi mehnat bozorida ishsizlarning umumiy ishchi kuchiga nisbatan foizda ifodalanadi. Ishchi kuchi — bu ishlashga qodir va ishlashni istagan insonlar majmuasi bo'lib, band bo'lganlar hamda faol ish izlayotganlarni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, ishlashga yaroqli bo'lsa-da, ish izlamayotgan va bu borada hech qanday harakat qilmayotganlar ishsizlar sifatida qayd etilmaydi.

Ishsizlik darajasi oshgan sari mamlakat iqtisodiyoti o'zining to'liq ishlab chiqarish quvvatiga erisha olmaydi, ya'ni potentsial YaIMdan pastroq natijaga erishiladi. Shu sababli, ishsizlikni tabiiy darajada ushlab turish iqtisodiy rivojlanish uchun muhim ahamiyatga ega. Agar haqiqiy ishsizlik darajasi tabiiy darajadan yuqori bo'lsa, bu YaIM uzilishining ortishiga olib keladi. Ushbu bog'liqlikni ingliz iqtisodchisi Artur Ouken o'z tadqiqotlarida matematik asosda isbotlab bergan.

Har bir davlatning asosiy maqsadi aholining turmush tarzini yaxshilash va kambag'allikni kamaytirishdan iborat. Bu yo'lda kerakli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, ammo ularning barchasi ham kutilgan natijani bermayapti. Masalan, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun kreditlar ajratilmoqda, biroq ushbu mablag'lar ko'pincha samarasiz ishlatilmoqda. Natijada muammoli kreditlar soni kundan-kunga ortib bormoqda. Buning asosiy sababi shundaki, ko'plab kreditlar asl maqsaddan tashqari yo'nalishlarga sarflanmoqda, bu esa tijorat banklariga katta zarar yetkazmoqda. Shu sababli kreditlar ajratilishi ustidan nazoratni kuchaytirish zarur — tadbirkor ajratilgan mablag'dan (masalan, chorvachilik, texnika vositalari) maqsadga muvofiq foydalanyaptimi, tadbirkorlik faoliyati real ravishda olib borilayaptimi, degan masalalar qat'iy nazorat qilinishi kerak.

Ishsizlikni kamaytirish uchun, eng avvalo, haqiqiy ishsizlar sonini aniq statistik ma'lumotlarga asoslanib belgilash va ularni ish bilan ta'minlash muhimdir. Bu borada Bandlikka ko'maklashish tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish katta yordam beradi. Agar ushbu tashkilotlarning vakolatlari kengaytirilsa, korxona va tashkilotlardan doimiy tarzda bo'sh ish o'rinlari haqida ma'lumotlar olinib, aholiga yetkazilsa, mos ish topish jarayoni ancha yengillashadi.

Ishsizlik – har qanday jamiyat rivojiga to'sqinlik qiluvchi salbiy omil bo'lishi mumkin. Uni to'liq bartaraf etish qiyin, biroq maksimal darajada kamaytirish mumkin.

Iqtisodiy nazariyada ishsizlikning ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlariga alohida e'tibor qaratiladi. Ishsizlik mavjud ishchi kuchidan to'liq foydalanilmasligini anglatadi va bu holat davlatga iqtisodiy zarar yetkazadi. Ishlashga tayyor bo'lgan har bir fuqaroga ish o'rni yaratib berilmasa, natijada ishlab chiqarilishi mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar yo'qoladi.¹

Xulosa qilib aytganda, ishsizlik iqtisodiyot uchun jiddiy muammo bo'lib, ayniqsa tarkibiy o'zgarishlar jarayonida bu muammoning salbiy oqibatlari chuqurroq namoyon bo'ladi. Davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlar tizimli va barqaror bo'lishi, bandlikni ta'minlovchi mexanizmlar bilan qo'llab-quvvatlanishi kerak. Faol iqtisodiy siyosat orqali ishsizlik darajasini pasaytirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Tulyaganov A., Abdukarimov K. Mehnat bozori iqtisodiyoti. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2020.
2. Astanakulov A.A. Iqtisodiy nazariya asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
3. Bozorov T., Abdug'aniev B. Makroiqtisodiyot: nazariya va amaliyot. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2019.

¹ Bozorov T., Abdug'aniev B. Makroiqtisodiyot: nazariya va amaliyot. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2019.